

HAMID NE'MATOVNINIG ILMIY MEROXI VA UNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Kenjayeva Dilfuza Yarashevna

O'zMU Jurnalistika fakulteti

Lingvistika yo'nalishi 2- kurs magistranti

dilfuzakenjayeva6@gmail.com

ANNOTATSIYA

H. Ne'matov ilmiy merosi haqida imkon doirasi to'liq ma'lumot berish. Olimning ilmiy nazariy qarashlari tilshunoslik taraqqiyotini belgilovchi asosiy nazariy manba ekanligini ta'kidlash. Olim rahbarlik qilgan ilmiy ishlar o'zbek substansial tilshunosligi hamda uning asosida ona tili ta'limini yangilashga qaratilgan va bu sohada katta ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan. Respublikamizda o'zbek tili boyicha maktab dasturlari ham, oliy filologik ta'lim dastur va qollanmalari ham shu mazmun hamda yonalishda amaliyotda ekanligi, ozbek substansial tilshunosligining garbda ham e'tirof etilishi, Yevropa faniga oz ta'sirini otkazayotganligi H. G. Ne'matovning ilmiy rahbar sifatida faoliyati ko'zgusidir.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, professor, darslik, turkolog, sintaksis, lisoniy hodisalar, leksik.

ABSTRACT

To provide as much information as possible about the scientific heritage of H. Nematov. To emphasize that the scientific theoretical views of the scientist are the main theoretical source that determines the development of linguistics. The scientific work led by the scientist is aimed at updating the Uzbek substantial linguistics and on its basis the education of the native language and has achieved great scientific and practical achievements in this field. The fact that Uzbek substantial linguistics is recognized in the West and has little influence on European science is a reflection of H.G.Nematov's activity as a scientific adviser.

Keywords: linguistics, professor, textbook, turkologist, syntax, linguistic phenomena, lexicon.

АННОТАЦИЯ

Представить как можно больше информации о научном наследии Х. Нематова подчеркнуть, что научно-теоретические взгляды ученого являются основным теоретическим источником, определяющим развитие языкоznания. Научная работа под руководством ученого направлена на обновление узбекского субстантивного языкоznания и на его основе образование родного языка и достигла больших научных и практических достижений в этой области. малое влияние на европейскую науку является отражением деятельности Х. Г. Нематова как научного консультанта.

Ключевые слова: языкоznание, профессор, учебник, тюрколог, синтаксис, языковые явления, лексика.

KIRISH

O‘zbek tilshunosligining Yevropa tilshunosligi tahlil tamoyillari asosida eng yangi tarix – XX-XXI asrlarda rivojlanish xususiyatlarini hech ishtibohsiz ikki –milliy istiqqloldan oldingi (XX asrning birinchi choragidan 1991 yilgacha) va milliy istiqqloldan keyingi (1991 yildan hozirgacha) davrlarga bo‘lish mumkin. Har bir davrning yetakchi ilmiy-metodik tamoyilini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Birinchi davrda - fanimizda tilimiz tahlilu qurilishi talqiniga o‘z davri uchun zamonaviy bo‘lgan yevropaviy tilshunoslik tahlil tamoyillarini tatbiq etish.

2. Ikkinci davrda yevropaviy tilshunoslik tahlil tamoyillari asosida tilimiz va uning qurilishi o‘zligini, o‘zbekona (turkona) tabiatini ochish va sharhlash hamda tilni egasi , sohibi bilan ajratmagan holda o‘rganish. O‘z-o‘zidan anglashilib turadiki, birinchi davr uchun ma’lum darajada taqlidchilik, eklektizm, uqib-uqmay ergashish holatlari tarixiy va ijtimoiy-ilmiy zarurat bo‘lgan va bunday yondashishning ayrim kamchiliklari ikkinchi davrda bartaraf etildi.

Ikkinci davr substansial (formal-funksional, zotiy) tahlil yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lib, til hodisalari falsafiy-metodologik tamoyillar asosida tadqiq etildi. Ustoz o‘z xotiralarida tadqiq metodologiyasi va dialektik tamoyillar haqida quyidagilarni yozgan: Dialektikaning F.Hegel umumlashtirgan quyidagi 16 tamoyili mening har bir ilmiy tadqiq ishimda nima haqida fikr yuritmasam qat’i nazar tarozu toshidek, o‘lchov me’yori bo‘lgan edi. Har fikrimda, har bir xulosayu hukmimda ularning hoziru nozir bo‘lishiga intilgan edim.

*Narsa (o‘rganish ob’ekti, manba)ning haqqoniyligi. Uni qanday bor bo‘lsa, shunday qabul qilish.

*Narsaning majmui asmo, sifat va munosabat ekanligi.

*Narsa hamisha taraqqiyot, o‘zgarishda.

*Narsada hamisha ichki ziddiyat (bir-biriga zid xususiyatlar) bo‘lishi.

- *Narsa bir-birini inkor etuvchi tomon (xususiyat)lar birligi.
 - *Bu ziddiyatlarning o‘zaro kurashi va bir- birisiz bo‘la olmasligi.
 - *Hukmda analiz (tahlil, ajratish) va sintez (umumlashtirish, birlashtirish) zarurligi.
 - *Narsa aloqa-munosabatlarining cheksizligi va rang-barangligi.
 - *Narsaning o‘z ziddiyatiga o‘tishi.
 - *Narsada yangi-yangi tomonlarning ochilib borishi.
 - *Ongning narsa mohiyatiga boqichma-bosqich cheksiz chuqurlashib borishi.
 - *Ongning narsa munosabatlarining rang-barangligi sabablariga bosqichli cheksiz chuqurlashib borishi
 - *Taraqqiyot jarayonida o‘tmish holatlarning takrorlanishi.
 - *Taraqqiyot natijasida avvalgi holatga qaytish.
 - *Mazmunni saqlagan holda shaklni, shaklni saqlagan holda mazmunni o‘zgartirish.
 - *Miqdoriy o‘zgarishlarning sifat, sifat o‘zgarishlarning miqdoriy o‘zgarishlarga o‘tishi.
- Shuning uchun «Dialektika teoriya poznaniya. M. : Nauka, 1965» va «Lisonuttayr»ning «Ma’rifat vodiysi» vasfu tavsifi-yu ko‘r-u komil hikoyasiga ko‘p murojaat etardim .
- Falsafiy tamoyillar bilimdoni H. G‘. Ne’matov substansial morfologiya, ya’ni grammatik shakl va so‘z shaklini imkoniyatlar majmuasi sifatida qarash hamda imkoniyatlarning sintaksisda voqelanishi masalasi, substansial yondashishning valentlik nazariyasi bilan aloqalari, sintaktik qurilmalarning morfologik shakl bilan aloqalari masalalarini yechishda aynan yuqorida berilgan 16 tamoyil asosida yondashish alohida ta’kidlagan edilar.

Mashhur turkiyshunos A. N.Kononov va faylasuf tilshunos S. N. Ivanovlarning shogirdi bo‘lgan Hamid Ne’matov o‘zbek tilshunosligi, turkologiya, umumiy tilshunoslik nazariyasi rivojiga til tadqiqotlari sifatini yanada yuqoriq bosqichga ko‘tarishga munosib hissa qo‘shgan olimdir. Hamid G’ulomovich nafaqat nazariy o‘zbek tilshunosligini, balki amaliy tilshunoslikni rivojlantirish uchun ham ko‘p harakatlar qildi. U kishining tashabbusi bilan ona tili ta’limi muammolarini hal etuvchi ona tili o‘qituvchilarining doimiy anjumanlari, mustaqillik davri ona tili ta’limining konseptual asoslarini ishlab chiqish, yangi davlat ta’lim standartlarini yaratish, noan’anaviy dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar barpo etish, yangi ta’lim metodlarini qo‘llash, o‘quv lug‘atlari laboratoriyalarini tashkil etish kabi tadbirlarni amalga oshirishda Hamid G’ulomovich yetakchilik qildi. Olim o‘z ilmiy faoliyatida tildagi nisbiylik, relyativizm, munosabat masalalariga katta ahamiyat bergen. Til va nutq tizimining mohiyati uni tashkil etuvchilarning bog‘lanish yo‘llari,

munosabatlariga bog'liq ekanligi, shuning uchun tilshunoslar falsafiy munosabat kategoriyasi mazmuniy belgilarini yaxshi bilishlari, bu umumiy (falsafiy) belgilarning tilda qanday xususiylanganliklarini anglashlari lozimligini aytgan. Olim o'z faoliyati davomida til, mantiq, psixologiya kategoriyalari bilan bog'liq bo'lган til (lison) va nutq dixotomiysi yoki oppozitsiyasiga katta e'tibor berdi. Asosiy til birligi bo'lган so'zning lisoniy (til) va nutqiy maqomi haqida ko'plab asarlar yozdi. Afsuski, bu muammo nafaqat o'zbek, balki jahon tilshunosligida ham hozirga qadar qoniqarli darajada hal etilmay qolayotir. Xususan, til (lison) - nutq oppozitsiyasi fonologiya va fonetika sohasida mukammal aniqlangan (ajratilgan) bo'lsa ham leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi sohalarda jiddiy belgilanmagan. Ularda til va nutq birliklarini chegaralovchi (fonologiya / fonetikadagi fonema / allofon kabi) maxsus lingvistik terminlar to'liq va tizimli aniqlanmagan.

Hamid G'ulomovich o'z faoliyati davrida til tadqiqotlarida dialektik mantiq metodologiyasidan foydalanish lozim ekanligiga e'tibor berdi. Xususan, uning «Советская тюркология» jurnalida nashr etilgan “Turkiy tillar morfologiyasida oraliq uchinchi masalaning qo'yilishiga doir” maqolasi yangi struktur tadqiqotlar nazariyasining shakllanishiga metodologiya bo'lib hizmat qildi. Hamid Ne'matov o'zbek tilshunosligi va turkologiyaning taraqqiyotini belgilab beruvchi istiqbolli dasturlar ham qoldirib ketdi. Uning leksik mikrosistema hamda turkiy tillar sintaksisini o'rganishga oid ilmiy-nazariy dasturlari shular jumlasidandir. Hamid Ne'matov so'nggi yillarda tilda relyativlik, antropololingvistika, pragmalingvistika kabi sohalar bo'yicha ham maqolalar e'lon qilib, shuningdek, tamal toshlari vatanimizda qo'yilgan o'zbek gradual tilshunosligini zamonaviy lingvistika arenasiga olib chiqish uchun harakat qilayotgan edi.

Professor Hamid Ne'matov ona tili ta'limining tom ma'nodagi jonkuyari edi. U mustaqillik bo'sag'asida RUMS (hozirgi Respublika ta'lim markazi) ning yetakchi mutaxassis maqomida O'qituvchilar gazetasi (hozirgi Ma'rifat ”) da ona tili ta'limi mazmuni, maqsadi, usuli va vositalarini o'zgartirishga oid bahs-munozaralar tashkil etishga boshchilik qildi. Natijada ona tili ta'limiga respublika o'qituvchilarining nuqtai nazarlarini ifodalovchi O'qituvchi , Ijod , Induktiv kabi yangi muqobil dasturlar yaratildi va u tuman, shahar, viloyat, respublika bosqichlarida muhokama etildi hamda bunda H. Ne'matov yetakchiligidagi tayyorlangan Induktiv dasuriga katta ishonch bildirildi. Shuningdek, dolzarb ilmiy-metodik muammolarni izchil hal etib borish uchun O'zbek tili doimiy anjumani ta'sis etildi va ushbu har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan anjumanga professor Hamid Ne'matov o'n yildan ortiq raislik qildi. Natijada maqsadga muvofiq ta'lim standartlari (DTS) , darsliklarning yangi avlodи vujudga keldi. H. Ne'matov g'oyasi amalga oshib ona tili ta'limi induksiyadan deduksiya tomon amalga oshirila boshladi.

MAQSAD VA VAZIFA

O‘zbek tilining rivojlanishi yo‘llari haqidagi N.Ne’matovning fikrlari bugungi kun uchun alohida ahamiyatga ega. Olimning ilmiy izlanishlari hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun qimmatli material hisoblanadi. Tilshunoslik bilimlari bilan jiddiy shug’ullanishlar maktab darsliklarida ham o‘z aksini topgan. Olim rahbarlik qilgan ilmiy ishlar ozbek substansial tilshunosligi hamda uning asosida ona tili ta’limini yangilashga qaratilgan va bu sohada katta ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan. Respublikamizda ozbek tili boyicha maktab dasturlari ham, oliy filologik ta’lim dastur va qollanmalari ham shu mazmun hamda yonalishda amaliyotda ekanligi, ozbek substansial tilshunosligining garbda ham e’tirof etilishi, Yevropa faniga oz ta’sirini otkazayotganligi H.G.Ne’matovning ilmiy rahbar sifatida faoliyati ko‘zgusidir Ilmni qunt bilan o‘rganish, izlash, xulosalar chiqarish va boshqalarga o‘rgatish san’atini o‘zbek tilshunosligi ilmining zabardast vakili, turkolog olim, filologiya fanlari doktori, proffesor Hamid G’ulomovich Ne’matov misolida ko‘rsatish. H.Ne’matovning tilshunoslik faoliyatini va o‘zbek tilshunosligining taraqqiyotidagi xizmatlarini o‘rganish.

TADQIQOT METODLARI

Tavsifiy, tahliliy, statistik, analiz-sintez, konseptual, komponent tahlil.

NATIJALAR VA MULOHAZA

Olim fonetik hodisalar haqida quyidagicha fikr bildirgan: nutq jarayonida tovushlarning bir- biriga ta’siri, chetdan olingan so‘zlarning shu til qonunlariga moslashtirish, urg‘u, sózlarning yonma - yon kelishida so‘z yoki qo‘srimchaning fonetik qurilishida ro‘y beradigan uzgarish kordinator - pozitsion uzgarish deyiladi. Bunday fonetik o‘zgarishlarning juda ko‘p turi mavjud: singish (assimilyatsiya) , moslashish (akkomodatsiya) , farqlananish(dissimilyatsiya) , ilovalanish (proteza) , kiritma (epenteza) , siqiqlanish (sinkopa), Qo‘sish (epeteza), tejalish (apokopa), qisqarish (reduksiya), tushish (eliziya), cho‘zilish (diareza), bo‘gin tushishi (gappologiya), o‘rin almashtirish (metateza), qo‘shoqlanish (gemiminatsiya) va boshqalar shular jumlasidandir. Til va nutq orasidagi dialektik aloqa va munosabati haqida H. Ne’matovning fikrlari quyidagicha umumlashtirilgan:

Til	Nutq
umumiylilik (mohiyat)	xususiylik(hodisa)
imkoniyat	voqelik
tayyorlik	hosilalik
majburiylik	ixtiyoriylik
birlklari chegaralangan	birlklari chegaralanmagan

Til va uning mohiyati, nutq va uning mohiyati, til va nutq birliklarining o‘ziga xos tabiatni tavsifidan ayonki, sistem-struktur tilshunoslik lingvistik tadqiqot ob’ektini - til va nutq birliklarining tabiatini an’anaviy tilshunoslikka nisbatan boshqacha tushunadi: sistem tilshunoslikda til birliklari deb olinadigan elementlar bevosita kuzatishda berilmagan va faqat aqliy tahlil, intellektual usul bilan ochilishi mumkin. Demak, sistemstruktur va an’anaviy tilshunoslikda til birliklarining tushunilishi, ularning tabiatini o‘rganuvchi tadqiqot usullari, metodologiyasi o‘zaro farq qiladi. An’anaviy tnlshunoslikda til birliklari deb konkret, moddiy, bizning sezgi a’zolarimizga ta’sir etadigan holatda berilgan xususiyliklar tushuniladi va bu tilshunoslik ushbu xususiyliklarni tasvirlash metodidan, tajriba, kuzatish, jonli mushohada usullaridan, ya’ni empirik tahlil metodologiyasidan foydalanadigan va shu metodologiya asosiga qurilgan tilshunoslikdir. Shuning uchun bugungi o‘zbek tilshunosligida yetakchi yo‘nalish, empirik, nominalistik yo‘nalishdir. Sistemstruktur tilshunoslikda esa bevosita kuzatishda berilmagan, faqat nutqqa tayanilgan holda aqliy yo‘l bilan ochiladigan til birliklarining tabiatni dialektik umumiylilik, imkoniyat va mohiyat sifatida tushuniladi hamda bu tilshunoslik dialektik umumiylilik, imkoniyat va mohiyatni ochish usullari-dialektik, radionalistik (aqliy) tahlil metodologiyasiga asoslanadn. Dialektik tahlil metodologiyasi falsafiy va boshqa ilmiy adabiyotlarda nazariy bilimlar metodologiyasi deb ham ataladi.

H.Ne’matov “LINGVISTIK TADQIQOT METODIKASI, METODOLOGIYASI VA METODLARI o‘quv fanidagi qarashlashlari: Ilmiy tadqiqot metodikasi bir necha tarkibiy qismni oz ichiga oladi: Bunda eng muhim qismlardan biri tadqiqotchining izlanishga qanday yondashishi, o‘rganish obyektni qanday tushunishi, unga qaysi nuqtayi nazardan turib yondashishidir. Mana shu omillar ilmiy tadqiqot metodologiyasini tashkil etadi. Metodologiya tadqiqotchiga narsa (o‘rganish obyekti) da nimalarni izlashi, topishi, izohlashi, ochib berishi lozimligini ko‘rsatib turadi. Bu uning yo‘lchi yulduzi, qayerga borishi va kelishi lozimligini ko‘rsatib turuvchi mayogidir. Tadqiqotchida va izchil tadqiqotda metodologiya hamisha bitta bo‘lib, u olimning dunyoqarashini tashkil etadi. Shuing uchun juda ko‘p holda metodologiya, tadqiqotchining bilish nazariyasi tamoyliiari tadqiqotchining dunyoqarashi, tadqiqotchi (tadqiqot) mantiqi (logikasi) kabi shaklan har xil tushunchalar bir xil ma’no va vazifada - sinonimlar sifatida bemalol qo‘llanilaveradi va bunda hech qanday xato yoq. Haqiqatan ham, bular o‘zaro juda yaqin tushunchalardir. Hamid Ne’matov yetakchiligidagi yaratilgan maktab darsliklari va qo‘llanmalar o‘zlarining yangiligi, mantiqiyligi, yuksak didaktik ko‘rsatmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Muallifning o‘z maslakdoshlari bilan yaratgan oliy talim darsliklari hozirgi lingvistikaning so‘nggi yutuqlarini aks ettirganligi, bo‘lg‘usi ona tili o‘qituvchilarining falsafiy-mantiqiy mushohadalarini ham oshirishga qaratilganligi

bilan qimmatlidir. Olim nafaqat tilshunos sifatida, balki filolog, turkolog sifatida respublika va undan tashqarida hamdo'stlik davlatlarida, xorijda ham e'tirof etilgan. U islom falsafasini ham mukammal bilar va lisoniy hodisalar talqiniga asosli hamda ishonarli tatbiq qilar edi. Hamid Ne'matov haqiqiy filolog edi. Uning mumtoz o'zbek adabiyoti bo'yicha horijda ma'ruzalar o'qiganligi hammamizga ma'lum. Olim falsafa, mantiq fanlarini chuqur egallagan va ulardan o'z tadqiqotlari, ona tili ta'limi tizimida metodologiya sifatida foydalanan edi.

XULOSA

H. G. Ne'matov nomi bilan bog'liq yutuqlar bisyor Ne'matov Hamid Gulomovich 40dan ortiq darslik, dastur, o'quv qollanma, metodik tavsiyalar kabi alohida nashrlarning, 250dan ortiq ilmiy maqolalarning muallifi va 100dan ortiq ilmiy-metodik ishlarning muharriri hamda taqrizchisidir. Olim ilmiy faoliyati davomida 40dan ortiq fan nomzodi va beshta fan doktori tayyorladi. Ular Buxoro, Toshkent, Qarshi, Andijon, Farg'ona, Samarqand shahar va viloyatlaridagi oliy ta'lim ochoqlarida ishlar moqdalar. Olim rahbarlik qilgan ilmiy ishlar o'zbek substansial tilshunosligi hamda uning asosida ona tili ta'limini yangilashga qaratilgan va bu sohada katta ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan. Respublikamizda o'zbek tili bo'yicha maktab dasturlari ham, oliy filologik ta'lim dastur va qo'llanmalari ham shu mazmun hamda yo'nalishda amaliyotda ekanligi, ozbek substansial tilshunosligining g'arbdagi ham e'tirof etilishi, Yevropa faniga o'z ta'sirini o'tkazayotganligi H. G. Ne'matovning ilmiy rahbar sifatida faoliyati kozgusidir. Ustozning samarali mehnatlari hukumatimiz tomonidan ham munosib taqdirlangan. Jumladan, ustoz 1996-yilda O'zbekistonda xizmat korsatgan xalq ta'limi xodimi faxriy unvoni, 2010-yilda El-yurt hurmati ordeni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining faxriy yorliq va diplomlari bilan taqdirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ne'matov H, Bozorov O, Til va nutq. -T. :O'qituvchi, 1993.
2. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T.: O'qituvchi, 1995.
3. Hamid Ne'matov, Baxtiyor Mengliyev, Shahlo Hamroyeva, Tilshunoslikning metodologik masalalari, 2020.
4. Ne'matov H, O'zbek tili tarixiy fonetikasi. T.: O'qituvchi, 1992.
5. Ne'matov H, Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari.-Buxoro, 2005.
6. Mengliev, B. R. Til yaxlit tizimi sifatida / B. R. Mengliev. - Toshkent, 2010.
7. Nigmatov. X. G. 11 12-asrlar Sharqiy turkiy til morfologiyasi. avtoref. dis. ... - Boku, 1978.
8. Nigmatov, X. G. Sintaktik aloqa usullari va turkiy sintaksisning dolzarb masalalari. Sov. Turkologiya. - 1988. - No 4.
9. FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari Buxoro 22-noyabr, 2021-yil.